

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZAMONAVIY EKOTURIZMGA OID BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Xayitova Gulchexraxon Ilxomjon qizi

Aniq va Ijtimoiy fanlar universitetining 1-bosqich magistranti

Scientific adviser: Erdanova Zebiniso Abilqosimovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ekoturizm sohasi bilan bog'liq leksik birliklar tahlil qilinadi. Ekoturizm terminologiyasining shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalariga urg'u berilgan. So'z boyligi va atamalar bazasi zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida chog'ishtirilib, tarjima jarayonidagi nozikliklar ochib berilgan. **Kalit so'zlar:** ekoturizm, termin, leksik birlik, chog'ishtirma tahlil, tarjima, madaniy tafovut.

Abstract. This article presents a comparative analysis of lexical units related to ecotourism in English and Uzbek. It focuses on the formation of terminology, lexical-semantic features, and cultural connotations. The study applies modern linguistic approaches to highlight the challenges and nuances of translating ecotourism-related terms across cultural contexts. Keywords: ecotourism, terminology, lexical unit, comparative analysis, translation, cultural differences.

Kirish

Zamonaviy global muhitda ekologik muammolarga bo'lgan e'tibor ortib borar ekan, "ekoturizm" tushunchasi ham jahon jamoatchiligi, jumladan, tilshunoslar diqqat markaziga tushmoqda. Ekoturizm nafaqat iqtisodiy va ekologik, balki lingvistik aspektdan ham qiziqarli sohadir. Bu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ekoturizmga oid leksik birliklarning shakllanishi, ularning ma'nodoshligi va tarjima jihatlari chog'ishtirma yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Ekoturizm bugungi kunda nafaqat sayohat, balki ekologik ong va barqaror rivojlanishning muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ingliz tilida 'ecotourism' atamasi XX asr oxirlarida ommalashgan bo'lib, u ekologiya va turizmni birlashtirgan so'z sifatida qaraladi. O'zbek tilida esa bu atama lingvistik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan bo'lsa-da, uning mazmun va mohiyatini tushunishda madaniy va ilmiy asoslar katta ahamiyat kasb etadi. Inglizcha namuna: sustainable travel, carbon-neutral tours, green destinations O'zbekcha mos birliklar: barqaror sayohat, uglerod neytral sayohat, yashil maskanlar. Bu misollar til birliklarining faqat tarjima orqali emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanishini ko'rsatadi.

2. Atamalar taqqosida ma'no va uslub farqlari

Har bir tilda ekologik sayohatga oid terminlar o'z madaniy kontekstiga ega. Masalan, ingliz tilidagi 'green travel', 'sustainable tourism' yoki 'low-impact tourism' kabi iboralar ekologik ongni aks ettiradi. O'zbek tilida bu iboralar

ko'proq tarjima asosida keltiriladi yoki sinonimik tarzda ifodalanadi: 'barqaror sayohat', 'yashil turizm' va h.k. Bu esa soha terminologiyasining boyishiga xizmat qiladi, biroq ularni bir xil uslubda qo'llash har doim ham imkoni bo'lmaydi. Bu holat tarjimon va tilshunos oldiga yangicha yondashuvni talab etadi.

3. Madaniyat va konnotatsiyalarning tildagi ifodasi

Ingliz tilidagi ko'plab ekoturizm atamaları ortida ma'lum ijtimoiy va madaniy g'oyalar mujassam. Masalan, 'voluntourism' bu ko'ngilli faoliyat va turizmni birlashtirgan murakkab tushuncha bo'lib, u o'zbek tilida hali keng tarqalmagan. Bunday birliklarning tarjimasi ko'pincha nafaqat lingvistik, balki madaniy interpretatsiyani ham talab qiladi. tushuniladi.

4. Ekoturizmga oid terminlarning tarjima strategiyalari
Chog'ishtirma tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

- To'g'ridan-to'g'ri tarjima: "eco-friendly travel" – "ekoturizmga mos sayohat"

- Izohli tarjima: "carbon offset" – "sayohat paytida chiqadigan karbonat gazini qoplash usuli"

- O'zlashtirish: "glamping" – "glamping" (komfortli ekologik lager)
Bu strategiyalar orqali mazmunni aniq yetkazish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Ekoturizmga oid leksik birliklar til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Ingliz tilidagi zamonaviy terminlar o'zbek tilida ham o'z o'rnini topmoqda, ammo ularni tarjima qilishda oddiy so'zma-so'z yondashuv yetarli emas. Har bir birlik madaniy, kontekstual va funksional yondashuv asosida tahlil etilishi zarur. Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikda ekoturizm terminologiyasini chog'ishtirma o'rganish zaruriyatini asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdramanov, S., Muratbaev, N., Joldasova, A., & Sultanova, M. (2025). GENERAL INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF PEDAGOGICAL TRAINING. *Modern Science and Research*, 4(4), 625-629.
2. Abulkosimovna, E. Z. (2022). Synonymous analysis of professional words in English and Uzbek. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2(05), 15-22.
3. Gulomova, R. (2020). Sociolinguistic competence of L2 students. *TJE- Tematics journal of Education ISSN*, 2249-9822.
4. Karimova, D. (2021). "Ekoturizmning lingvokulturologik xususiyatlari". *Til va tarjima*, 1(3), 36-41.
5. Rashidova, G., & Khilola, K. (2024). THE ROLE OF INTONATION AND STRESS IN MEANING. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 1(3), 72-75.
6. Shoazimov, Sh. (2019). *Zamonaviy tarjima nazariyasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
7. Yusupov, S. (2020). "Turizm terminlarining tarjimada ifodalanishi". *Filologiya masalalari*, 2(18), 45-52.